

EKOLOGIK MA'DANIYAT

Choriyev Shuxrat Nuraliyevich

Denov pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ota-onamiz uyni, hovlini toza tutish, vaqtida shamollatish, gul va daraxtlarni, uy hayvonlarini parvarishlashga o'rgatadi. Turli ne'matlarni iste'mol qilganimizda ular tabiat in'omi ekanini aytib, shunday rizq-nasibani bergani uchun Yaratganga shukronalar aytadi.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, "Avesto", zardushtiylik, zoologiya, botanika, ekologik ma'daniyat.*

Ekologik madaniyat ham umumbashariy madaniyatning uzviy bir qismi. Uning shakllanish davri olis zamonlarga borib bog'lanadi.

Ekologiya yunoncha so'z bo'lib, «oykos» - uy, «logos» - fan, ya'ni «tabiat uyi» bo'lmish borliqda yashayotgan tirik jonzotlarni o'rganuvchi ilm sohasi deganidir.

Bizning yurtimiz hududida bundan qariyb uch ming yil oldin zardushtiylik talimoti shakllangani, uning bosh kitobi «Avesto» deb atalishini bilsang kerak. Bu ta'limotda yerni, suvni asrash, hayvonlarga ozor yetkazmaslik haqida ko'pgina ibratli gaplar aytilgan. Chunki avlodlarimiz o'sha zamonlardayoq sen bilan biz yashab turgan bu olam yagona vujudan iborat ekani, bordi-yu uning biror a'zosiga ziyon yetkazilsa, butun tana, ya'ni jamiyki borliqda salbiy o'zgarishlar yuz berishini yaxshi tasavur etganlar. Chiqindi va axlatlarni duch kelgan joyga tashlamaslik, suvni va havoni bulg'amaslik kabi xalqimiz orasida bugungi kungacha saqlanib kelayotgan odatlarning ildizlari ham ana shu zamonlarga borib bog'lanadi. Yoki o'sha davrlarda shakllangan Navro'z bayramida tabiat bilan uyg'un yashash, yer, suv va osmonga, barcha tirik jonzotlarga mehr bilan qarash asosiy o'rin tutadi. Yoki ota-bobolarimizning muqaddas dini bo'lmish islomda tabiatdagi har bir hodisa Ollohning mo'jizasi sifatida e'tirof etilishi va ularga nisbatan avaylab munosabatda bo'lish g'oyasi targ'ib qilinadi. Bularning barchasi xalqimizning hamma zamonlarda ham o'ziga xos ekologik tafakkur va mada'niyat sohibi bo'lganini ko'rsatadi.

Ekologik madaniyat bir nechta omillar asosida shakllanadi. Tabiatga muhabbat, tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar, ekologik tarbiya, an'ana va qadriyatlar, ekologik targ'ibot shular jumlasidandir.

Tabiatga mehr-muhabbat har bir insonning qonida mavjud. Chunki inson tabiat farzandi. U ona qornidayoq tabiat ne'matlaridan bahramand bo'ladi - nafas oladi, oziqlanadi. Tug'ilganidan so'ng tabiatga yanada yaqinroq bo'ladi — gullarni, kapalaklarni, quyosh shu'lasini ko'rib quvonadi, suvda yayrab cho'miladi, tuproqda chopqillab o'ynaydi, ranglardan zavq oladi va hokazo. Tabiatga mehr inson ko'nglida rahm-shafqat va hayrat tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Lekin dunyoda shunday odamlar borki, ularga mehr begona. Ular tabiatni faqat boyish, o'z nafsini qondirish manbai deb biladi. Shuning uchun ular barchamiz uchun onadek mehribon bo'lgan tabiatga ziyon yetkazadi.

Tabiat haqidagi bilimlar bizda bolalikdanoq shakllana boshlaydi. Hammamiz yoshlikda turli hayvonlar shaklidagi o'yinchoqlarni o'ynaganmiz, ota-onamiz bilan birga hayvonot bog'iga borganmiz, tabiat bag'riga sayohat qilganmiz, turli gul va ko'chatlar o'tqazganmiz. Shu tariqa hayvonlar va o'simliklar haqida turlicha tasawurlarga ega bo'lganmiz. Ko'rgan multfilmlar, o'qigan kitoblarimizning ham «Zoologiya», «Botanika» kabi fanlardan maktabda olgan bilimlar tabiat hodisalarini tushinishda katta ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi bizning tabiat haqidagi tasawurlarimizni kengaytiradi.

Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ota-onamiz uyni, hovlini toza tutish, vaqtda shamollatish, gul va daraxtlarni, uy hayvonlarini parvarishlashga o'rgatadi.

Turli ne'matlarni iste'mol qilganimizda ular tabiat in'omi ekanini aytib, shunday rizq-nasibani bergani uchun Yaratganga shukronalar aytadi.

Shuningdek, har faslga mos mehnat an'analari va qadriyatlarimiz ham ekologik madaniyatimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, kuz kelishi bilan daraxtlarni butab, xazonlarni to'plab, tok, anjir kabi issiqsevar o'simliklarni o'rab qo'yamiz. Qish oldidan zarur meva va sabzavotlarni g'amlaymiz. Bahor kelishi bilan yalpiz, ismaloq, jag'-jag' kabi barra ko'katlardan darmon sifatida turli pishiriqlar tayyorlanadi. Ko'klamni qutlab, Navro'z bayrami o'tkaziladi. Ariq-zovurlar, tomorqalar tozalanadi va hokazo.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali, mahalla, ma'naviyat, tabiatni himoya qilish faollari tomonidan olib boriladigan targ'ibot va tushuntirish ishlari ham ekologik madaniyatni oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Bularning barchasi hayvonlar, o'simliklar — butun tabiat biz mansub bo'lgan tiriklik olamining bir bo'lagi, ular ham yashashga, o'zidan zurriyod qoldirishga haqli ekanini anglashga xizmat qiladi. Ana shu haqiqat ekologik madaniyatning mohiyatini tashkil etadi. Shu haqiqatni anglagan inson tabiatni asrashga intiladi, yovuz kimsalarning uning ustidan zo'ravonlik qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun kurashadi.

Bularning barchasi hayvonlar, o'simliklar — butun tabiat biz mansub bo'lgan tiriklik olamining bir bo'lagi, ular ham yashashga, o'zidan zurriyod qoldirishga haqli ekanini anglashga xizmat qiladi. Ana shu haqiqat ekologik madaniyatning mohiyatini tashkil etadi. Shu haqiqatni anglagan inson tabiatni asrashga intiladi, yovuz kimsalarning uning ustidan zo'ravonlik qilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'sib boradi. Inson tabiat bilan, ya'ni o'simliklar hamda hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer usti boyliklari bilan o'zaro muloqotda bo'ladi. Ekologik muammolar kengayib, ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'rni beqiyosdir. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga

rioya qilmaslik ertami kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojialiqibatlari jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi. Hozirgi davrda insoniyat, u qanday xavf qarshisida kelib qolganligini tushunib yetdi, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi. Inson faoliyatining natijasida atrof muhitga ancha sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik xavfsizlik klassifikatsiyasida bo'lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik xavfsizliklar mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tmadi. Bu xavflardan ozon qatlami muammolari, ya'ni yemirilishi, iqlimning o'zgarishi, cho'llanish, toza ichimlik suvi tanqisligi, Orol dengizi muammosi, hayvonot va o'simlik dunyosi turlarining qisharib borishi, o'simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi, yer degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi, atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir. Ekologik fojialarning bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o'rin tutadi. Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi xalqimiz ekologik madaniyatini oshirish orqali huquqiy fuqarolik jamiyati tamoyillari asosida tabiatdan foydalanishni yo'lga qo'yish, tabiatni muhofaza qilish sohasida Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona Vatanimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, uni asrab-avaylash va kelgusi avlod uchun zarur hayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko'rsatishdir. Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshdan kechirayotgan hozirgi kunda ko'p sarmoya talab qiladigan ekologik tadbirlarni o'tkazish qiyindir. Lekin xalqimiz eng avvalo yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik, ongida millatimiz va davlatimiz rivojiga xavf solib turgan hodisalarga, shu jumladan, ekologik xavfga ham, faqat ularni bilishi va sodiqligi, tadbirkorligi va mas'uliyatligi bilan javob bera olishi hamda xavfni bartaraf etish mumkinligini singdira olishimiz, shu jumladan, ekologik ong va madaniyatni yo'lga qo'yish orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan ko'p ofatlarning oldini olish mumkin bo'ladi. Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzdi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini izdan chiqardi. Xalqimizda bir maqol bor: «Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi». Darhaqiqat, necha asrlar davomida inson o'zining taraqqiyoti jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi. Bir so'z bilan aytganda, ekologik muammolar aksariyat hollarda insoniyat ta'siri ostida vujudga kelar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.arxiv.uz
2. www.kompy.uz.